




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 2345,3 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 2335,5 mlrd.so'mni (103,1 foiz), o'rmon xo'jaligida – 2,1 mlrd.so'mni (101,1 foiz), baliq xo'jaligida – 7,7 mlrd.so'mni (104,4 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Xovos (103,7 foiz), Guliston (103,6 foiz), Boyovut (103,3 foiz) tumanlarida kuzatildi. Oqoltin (102,3 foiz), Sirdaryo (102,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Boyovut tumanining ulushi 16,0 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Sayxunobod tumani mos ravishda 13,2 foiz va Xovos tumani 13,0 foiz ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Mirzaobod (8,3 foiz), Guliston (10,2 foiz) va Sirdaryo (12,0 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 101,1 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 105,8 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 69,3 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,5 foizi – fermer xo'jaliklariga, 4,2 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1263,7 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,1 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,9 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida 50,4 ming tonna (102,5 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 272,6 ming tonna (97,7 foiz) sabzavotlar, 264,5 ming tonna (98,9 foiz) oziqbop poliz, 36,7 ming tonna (102,0 foiz) meva va rezavorlar, 13,6 ming tonna (111,7 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 434,1 ming tonnadan ortiq don ekinlari ishlab chiqarildi.


Chorvachilik



2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1032,2 mlrd, so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 44,0 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 54,4 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar- sentyabriga nisbatan 6,0 foizga ko'p), 263,7 ming tonna sut (4,5 foizga), 127,7 mln.dona tuxum (4,8 foizga), 0,6 ming tonna jun, (3,9 foiz) ni tashkil qildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi





Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 98,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 94,3 foizi, tuxumning 69,7 foizi, junning 89,8 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 442,0 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 154,2 ming boshga, qo'y va echkilar – 317,8 ming boshga, parrandalar – 1767,0 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 2,5 ming boshga (0,6 foizga) ko'paydi, shu jumladan sigirlar – 2,7 ming boshga (1,8 foizga), qo'y va echkilar – 0,2 ming boshga (0,1 foizga) oshgan bo'lsada, parrandalar – 39,7 ming boshga (-11,4 foizga) kamaydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yining 1 sentyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 91,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 2,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 81,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi